BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI HOKIMINING QARORI

201000, Romitan tumani, Buxoro ko'chasi, 3-uy, tel: (65) 55-2-14-45, romitan.t@exat.uz

2021 - yil 30 - dekabr 232-2-40-Q/21 Romitan tuman hokimligi

Romitan tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l harakati Qoidalari" talablariga asosan Romitan tumani hududida yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik-ogohlantirish va og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo'lgan keng ko'lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Romitan tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o'rnatilishi lozim bo'lgan yo'l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo'l belgilarini o'rnatishga ruxsat berilsin.

2. Romitan tuman Ichki ishlar bo'limi (Sh.Hayitov.), tuman ichki ishlar bo'limi Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmasi (R.Sultonov) va tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (A.Jumayev) tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo'llari va markaziy ko'chalarida fuqarolar transport vositalarini harakati xavfsizligini ta'minlash, yo'l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo'l belgilarini o'rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror "Romitannoma" gazetasida e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining Romitan.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

***

Tuman hokimi **Barnoyev U. I.**

Ромитан туман ҳокимининг
2021 йил 30 декабрдаги
232-2-40-Q/21-сон қарорига
1-илова

Romitan tumani hokiminig

2021 йил __ _____даги

_____-сон қарорига

илова

Romitan tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida **manzillari**

RO'YXATI

№	Yo'l belgisi o'rnatilgan manzil nomi	Yo'l belgisining nomi
1.	Romitan tumani markaziy yo’li A.Temur ko'chasi.	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
2.	Romitan tumani markaziy yo’li dehqon bozori yonidagi avtoturargoh oldida	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
3.	Romitan tumani markaziy yo’li tuman hokimligi moliya bo’limi binosi oldida	4.6.1 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lak
4.	Romitan tumanidagi talim muassasalari binolari oldida	4.6.2 Piyodalar va velosipedchilarning birgalikda harakati tashkil etilgan yo’lakning oxiri